



SUT BEZI RAKI DIAGNOSTIKASIDA KTNING O'RNI

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

2-son davolash fakulteti

Bozorov Xayotbek

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda sut bezi saratoni (SBS) ayollar orasida onkologik kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha dunyo miqyosida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, barcha onkologik kasalliklarning taxminan 25-30% aynan sut bezi ulushiga to'g'ri keladi. O'zbekiston sharoitida bemorlarning qariyb 40-45% qismi kasallikning uchinchi va to'rtinchi bosqichlarida aniqlanishi diagnostika jarayonini yanada takomillashtirishni talab etadi. Erta bosqichlarda tashxis qo'yilganda bemorlarning 5 yillik yashash ko'rsatkichi 92% ni tashkil etsa, metastazlar mavjud bo'lgan kechki bosqichlarda bu ko'rsatkich 27% gacha pasayib ketishi aniqlangan. Kompyuter tomografiyasi (KT) usuli nafaqat birlamchi o'simtani, balki uning tana bo'ylab tarqalish darajasini aniqlashda asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Sut bezi saratoni bilan og'rigan bemorlarda kasallikning tarqalish darajasini, uzoq metastazlar mavjudligini va davolash strategiyasini belgilashda ko'p qatlamli kompyuter tomografiyasining (MSCT) diagnostik samaradorligini tahlil qilish va baholashdan iborat.

Material va usullar. Tadqiqot davomida sut bezi saratoni tashxisi qo'yilgan 60 nafar bemorning klinik ma'lumotlari o'rganildi. Tadqiqotda 64 va 128 qatlamli zamonaviy MSCT apparatlaridan foydalanildi. Tekshiruv jarayonida ko'krak qafasi, qorin bo'shlig'i va kichik chanoq a'zolari kompleks skaner qilindi. O'simta va metastatik o'choqlarning vaskulyarizatsiyasini baholash uchun yod saqlovchi kontrast moddalar yordamida dinamik kuchaytirish usuli



qoʻllanildi. Olingan natijalar gistologik tekshiruv va anʼanaviy mammografiya maʼlumotlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Oʻtkazilgan KT tekshiruvlari natijasida bemorlarning 65% ida oʻsimtaning koʻkrak qafasi devoriga infiltratsiyasi va regionar limfa tugunlariga metastaz bergani aniqlandi. Uzoq metastazlarni izlash jarayonida KTning sezgirliги oʻpka toʻqimasi uchun 94% ni, jigar uchun 89% ni tashkil etdi. Xususan, bemorlarning 18% ida oʻpkada, 12% ida jigarda va 15% holatda suyak tizimida jismoniy tekshiruvlarda sezilmagan metastatik oʻchoqlar qayd etildi. Kontrastli KT yordamida oʻsimtaning qon tomirlar va atrof toʻqimalar bilan munosabati aniqlanib, 20% holatda dastlabki rejalashtirilgan operatsiya hajmi kengaytirildi yoki davolash taktikasi kimyoterapiya foydasiga oʻzgartirildi. KTning metastazlarni aniqlashdagi umumiy diagnostik aniqligi 90-92% oraligʻida ekanligi isbotlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, kompyuter tomografiyasi sut bezi saratonini bosqichlarga ajratishda (staging) va metastazlarni erta aniqlashda eng ishonchli usuldir. KT tekshiruvi bemorlarning taxminan 90% ida kasallikning toʻliq manzarasini koʻrish imkonini beradi, bu esa jarrohlik amaliyoti koʻlamini toʻgʻri belgilashda va asoratlarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday qilib, MSCT usuli sut bezi saratoni bilan ogʻrigan barcha bemorlar uchun diagnostika standartining ajralmas qismi boʻlishi lozim.

